

TARIX DARSLARIDA XARITA BILAN ISHLASH AHAMIYATI

Zarinabonu Nuraliyeva Ollanazar qizi

Termiz Davlat universiteti Tarix fakulteti(mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)

4-kurs talabasi Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi

87-maktabda tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarix darslrida xarita bilan ishslashning yangicha usullar, g'oya va metodlarning dars jarayonida qo'llanishi kabi ko'nikmalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xarita, geografik, texnologiya, bosma, obzor, rivojlanish.

Tarix fanlarini o'qitish jarayonida mustaqil fikrlovchi o'quvchi yoshlarni o'qitishning faol yangi vositalari asosida o'qitishni tashkil qilish va tarbiyalash bugungi davrning muhim vazifalaridan biridir. Avvalambor, o'qituvchi bolalarining qobiliyatları va iste'dodollarini rivojlantirish uchun uz fanini chuqur bilmog'i joiz. Davr bugungi o'qituvchidan mustaqillikni, ijodkorlikni talab qilmoqda. O'qitish faoliyatini yangi vositalari, xususan an'anaviy bo'limgan dars turlarini ishlab chiqarish naqadar muhimdir.

Bugunda tarix fanlari o'qitish jarayonida yangi uslub va metodlar qo'llanmoqda. Albatta o'qituvchi bor imkoniyatlarini berib, o'z o'quvchisiga mavzuni yetkaza olishi mumkin. Lekin, o'quvchidan o'z navbatida o'rganilgan mavzuni mustahkamlash, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini ham o'stirish talab etilmoqda. Ma'lumki, tarix o'qitish usullari o'quvchidan mavzuni gapirib berish, ko'rgazmali yoki amaliy o'qitish vositalariga qarab ifodalab berish talab qilinar edi. Hozirda bu yangi o'qitish usullari asosida bajarilmoqda. O'qituvchidan bugun o'quvchga bilim beribgina qolmay, erkin tafakkur yuritishga mustaqil fikrlashga, o'z ustida tinmay izlanishni talab etmoqda.

Tarixiy voqealari ma'lum bir vaqtida va ma'lum bir joyda sodir bo'ladi. O'quvchilarda voqealari sodir bo'lgan joy haqida tasavvur yaratish ta'limda muhim o'rinni tutadi. Tarixiy xarita bilan ishslash geografik muhitga xarakteristika berishning asosiy usulini tashkil etadi. Geografik muhit jamiyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo'lmasada tarixiy rivojlanish tezlashishi va sekinlashishiga jiddiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Geografik muhitning jamiyat rivojlanishidagi roliga, ayniqsa qadimgi dunyo tarixi darsligida katta o'rinni berilgan. V-VI sinflarda o'quvchilarga geografik muhit bilan odamlarning mashg'ulotini o'rtasidagi aloqani ochib berish, xalqlarning tarixiy rivojlanishiga geografik muhitning ta'sirini ko'rsatish uchun katta imkoniyat bor. Xarita yordamida biror mamlakatning tarixiy bosqichlaridagi ahvolni aniq tasvirlab berish o'quvchilarda birinchidan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi haqida

aniq tasavvur yaratishga ikkinchidan inson avlodlari mexnatining o'zgaruvchilik kuchini puxta tushunib anglab olishlariga yordam beradi. Binobarin, xarita bilan ishlash juda katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Darsda xaritadan foydalanib tarixiy voqeа sodir bo'lган joyni ko'rsatish, o'quvchilarda geografik muhitning roli haqida tasavvur yaratish balki tarixiy voqealarning mohiyatini ularning qonuniyatlarini, o'zaro aloqalari, sabab-natijalarini ochib berishda ham muhim rol o'ynaydi. Xaritadan tarixiy voqeани tushuntirib berishdagina, emas balki uni tahlil qilishda va umumlashtirishda ham foydalaniladi.

Xarita yordamida tarixiy voqealarning sabab aloqalari ochib yuboriladi. Masalan, Amir Temir davlatining yuksalishi. Xarita darsning boshida o'rganilgan materialni tahlil qilish, umumlashtirish tarixiy rivojlantirishning qonuniyatlarini ochib berishga yordam ko'rsatadi. Xarita bir qator tarixiy voqealar va hodisalarning natijalarini ko'rsatib o'rganishga imkon beradi. Tarixiy xarita o'quv materialin mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi voqeа bo'lib o'tgan joyini devorga osilgan xaritadan ko'rsatgan vaqtida, o'quvchilarining o'sha joyni o'z xaritasi yoki atlasidan izlab topishi, o'qituvchi rahbarligida xaritaning tahlil qilinishi o'quvchilarining o'z daftarlariagi eskizlar va darslikdagi xaritalar ustida uyda mustaqil ishlashi, navbatdagi darsda berilgan savollarga xaritadan foydalanib javob berishi, o'quv materialining puxta o'zlashtirilishiga va esda uzoq saqlanishiga yordam beradi.

Tarix o'qitish tajribasida tarixiy xaritalarning uch turidan foydalaniladi. 1. Umumiy xaritalar. Ular bir mamlakat yoki bir grupper mamlakatdagi tarixiy voqealarni, ularning mavqeini, tarixiy rivojlanishning ma'lum bosqichidagi ahvolini aks ettiradi. 2. Obzor xaritalar. O'rganiladigan voqealar rivojlanishning izchilligini uzoq davr mobaynida hududning o'zgorganini aks ettiradi. Masalan: — Rim davlatining yuksalishi. 3. Mavzuga oid xaritalar. Ma'lum tarixiy voqealarga yoki tarixiy jarayonning ayrim tomonlariga bag'ishlanadi. Masalan, — Xonliklarning ijtimoiy - iqtisodiy ahvoli, — 1525 yilda Germaniyada dehqonlar urushi. Mavzuiy xaritalarda ijtimoiy hayotga doir masalalar chunonchi, iqtisodiy masalaga, sotsial harakatlarga, sinfiy kurash yoki harbiy o'tmishga doir masalalar to'laroq yoritiladi. Darslik va atlaslardagi xaritalarning ko'pchiligi mavzuiy xaritalardir. O'qituvchi bosma yoki qo'lda tayyorlangan osma mavzuiy xaritalardan ham foydalanadi. T.O'. Salimov, M.Muydinova, F. Sultonov. Jahon tarixi. 7-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarida ham tarix darsining asosiy jihози xaritaga alohida e'tibor qaratilgan.

Tarix darslarida o'quvchilarni mamlakatimizning tabiiy sharoiti va iqtisodini rivojlanish tarixi bilan chuqurroq tanishtirish maqsadida tabiiy va iqtisodiy geografik xaritalardan ham foydalaniladi. Birorta ham darsni xaritasiz tasavvur etish qiyin. Xarita tarix darsining eng zaruriy qo'llanmasi bo'lib hisoblanadi. Xarita avvalo o'rganiladigan mavzuga mos bo'lishi lozim. O'qituvchi voqealar rivoji davomini bayoni jarayonida xaritadan ko'rsatib borishi ayni vaqtda o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatadigan joyni qo'llaridagi xarita yoki atlasdagi xaritadan

izlab topishlari lozim. Har bir yangi xarita o'rgana boshlanganda unga qisqacha obzor berish unga o'rganilgan eski xarita bilan solishtirib o'quvchilarni yangi xaritadan o'zgarishlar bilan tanishtirish, ularning tarixiy rivojlanishining izchilligini har bir bosqichning o'ziga xos muhim xususiyatlarini anglab olishlariga yordam beradi. O'quvchilar ikki xaritani solishtirib mamlakat hududi toraygan yoki kengayganini, shaharlarning o'sganligi va boshqa o'zgarishlar yuz bergenligini tushunib oladilar. O'qituvchi xarita yuzasidan savollar va topshiriqlar berish yo'li bilan o'quvchilarni V-VI - sinfdan boshlab xarita ustida ishlashga o'rgatib boradi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xodiev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboev O.K. Keys-stadi - iqtisodiy oliy o'quv yurtidagi zamonaviy ta'lif texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma —Zamonaviy ta'lif texnologiyalari turkumi. - T.: TDIU, 2009
2. N.N.Azizzoxjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: TDPU. 2003.
3. Gaffarov YA, Gafforova M. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish usullari.T., 1996